



Qozog'istonlik Olimlarning Islomshunoslik Fanining Rivojiga Qo'shgan Hissasi

Şohista Hamrokulova*
ORCID-Id:0000-0002-1930-2282

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qozog'istonning janubiy viloyatlarida tug'ilib o'sgan etnik o'zbeklar –diniy ulamolar Sayyid Mahmudxon ibn Sayyid Nazirxon at-Taroziy hamda Sayyid Mubashshirxon Muhammadxon To'ra Taroziyning manfur Sho'ro tuzumi qarshiligiga qaramay xalqqa diniy ilmu urfonni o'rgatgani, keyinchalik Sho'ro zulmidan qochib, muhojirlikka yuz tutganda ham Islom dini asoslari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirganlari va ularning islomshunoslik fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini xususida ma'lumotlar bayon qilingan. Ushbu olimlarning hayot yo'li haqida ma'lumotlar berilgan va ularning yirik ilmiy asarlari tahlil doirasiga tortilgan.

Kalit so'zlar: Qozog'iston, Janubiy Qozog'iston, Taroz, Turkiston, islom dini, diniy ulamolar, Sayyid Mahmudxon ibn Sayyid Nazirxon at-Taroziy, Sayyid Mubashshirxon Muhammadxon To'ra Taroziy

* Dr., Semerkant Devlet Üniversitesi Tarih Fakültesi öğretim Üyesi, Özbekistan, E-posta: juliboy2@gmail.com

Contribution of the Kazakh Religious Scholars to the Development of Islamic Research

Abstarct

This article spelled out rare information of the ethnic Uzbeks,religious scholars, - Sayyid Mahmudhan bin Sayed Nazirkhan at-Tarazi and Sayed Mubashirkhan Muhammad Tore Tarazi. These religious scholars, despite the opposition from the Soviet system, disseminated religious knowledge among the people, taught people the basics of Islamic values. They continued noble deeds during the period of emigration, as well as carried out scientific research on the basics of Islamic civilization and the Muslim faith. In this paper of their contribution to the development of Islamic science and the main scientific works of these outstanding researchers are analysed.

Keywords: Kazakhstan, South Kazakhstan, Taraz, Turkestan, Islamic religion, religious scholars, Sayed Mahmudhan bin Sayed Nazirkhan at-Tarazi and Sayed Mubashirkhan Muhammad Tore Tarazi

Вклад казахстанских ученых в развитие в исламоведения

Резюме

В данной статье изложены редкие сведения про видных религиозных ученых, выходцев из южных областей Казахстана, этнических узбеков - Сейид Махмудхан бин Сайед Назирхан ат-Тарази и Сайед Мубаширхан Мухаммад Торе Тарази. Эти религиозные ученые несмотря на противодействие со стороны советской системы распространяли среди народа религиозные знания, учили людей основам исламских ценностей. Это благородные дела они продолжали в период эмиграции, а также проводили научные исследования по основам исламской цивилизации и мусульманской веры. В работе анализируются их вклад в развитие исламской науки и основные научные труды этих замечательных исследователей исламской цивилизации.

Ключевые слова: Казахстан, Южно-Казахстанская, Тараз, Туркестан, Исламская религия и религиозные лидеры, Сейид Махмудхан бин Сайед Назирхан ат-Тарази и Сайед Мубаширхан Мухаммад Торе Тарази

Kirish

O'zbek va qozoq xalqlari azaldan bir-biriga yelkadosh bo'lib, ahil-inoq yashab kelgan. Turkiy tilning ikki tarmog'ida so'zlashuvchi bu ikki xalqning tarixi, madaniyati, qadriyatlarini bir. Bu yaqinlik bugungi kunda davlatlararo hamkorlikka mustahkam asos bo'lmoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik 1998 yil Toshkentda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma, 2013 yil poytaxtimizda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma ruhida taraqqiy etmoqda. Ikki tomonlama hamkorlik barcha sohalarni qamrab olgan. Parlamentlar, vazirlik va idoralar o'rtasidagi aloqalar muntazamlik kasb etgan.

O'zbekiston va Qozog'iston BMT, SHHT, MDH, Islom hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar bo'yicha tomonlarning pozitsiyalari bir-biriga mos yoki yaqindir.

Keyingi paytlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ochiq va pragmatik siyosati natijasida oliy darajadagi muloqotlar faollashdi. O'zbekiston va Qozog'iston rahbarlarining 2017-2018 yillardagi o'zaro davlat tashriflari mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. Bu tashriflar doirasida imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida 2017-2019 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasi savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga kuchli sur'at bag'ishladi. Qozog'iston va O'zbekiston xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarning qadimiyligi va mustahkamligi ham bugungi o'zaro qardoshlaracha hamkorlikning tamal toshlaridan biridir. Xususan, Qozog'istonning janubiy viloyatlari, ayniqsa, Tarozi, Chimkent, Yassi (Turkiston) shaharlari qadim-qadimdan, to eramizning VII asridan boshlab Dashti Qipchoqda islomiy madaniyatni tarqatgan, o'zbek va qozoq xalqlari madaniyatining markazlaridan bo'lib kelgan¹. Shuningdek, XX asr boshida Turkiston, Yettisuv va Dasht viloyatlarida milliy uyg'onish harakatlari boshlanganida o'zbek va qozoq ziyolilari qo'lni-qo'lga berib chor istibdodiga qarshi kurashgan, xalqlarimizni asriy uyqudan uyg'otib, ozodlik yo'lini ko'rsatgan edilar. Ayniqsa, Janubiy Qozog'istonlik diniy ulamolar omma o'rtasida islomiy irfonni tarqatish, diniy va milliy qadriyatlarni xalq o'rtasida targ'ib qilishda katta xizmat qilganlar.

2. Diniy ulamolar. Sayyid Mahmudxon ibn Sayyid Nazirxon at-Taroziy

Islomiy tamaddun va muqaddas islom dinining asoslari xususida chuqur ilmiylik bilan sug'orilgan asarlar yozgan zotlardan birining to'liq ismi Sayyid Mahmudxon ibn Sayyid Nazirxon at-Taroziydir. U kishining hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni M.Hoshimov², Hoji Ismatulloh Abdulloh³ hamda S.Jalilovlarning⁴ ilmiy izlanishlarida uchratishimiz mumkin. Sayyid Mahmudxon Taroziy hozirgi Qozog'iston janubidagi Tarozi shahrida tug'ilib, Madinada vafot etgan. Ammo, u kishining tug'ilgan va vafot etgan sanasi yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlarda turlicha ko'rsatilgan. Jumladan, Murod Hoshimov Sayyid Mahmudxon Taroziy 1894 yil (hijriy 1312 yil) Tarozi shahrida tug'ilgan va 1992 yil (hijriy 1412 yil) vafot etib, Madina shahridagi al-Garkad qabristoniga dafn etilgan deb ma'lumot beradi. Hoji Ismatulloh Abdulloh esa Sayyid Mahmudxon Taroziyni 1893 yilda tug'ilib, 1991 yil 23 iyunda Qurbon hayitining ikkinchi kuni 98 (hijriy hisobda 101) yoshida Madinada vafot etgan deb ko'rsatsa, Sayyid

¹ Golden, Peter. B. "Chapter 13 - The Karakhanids and Early Islam", in Sinor, Denis, The Cambridge History of Early Inner Asia, Cambridge University Press, 1990. -pp. 343-370.

² Haşimov M. Religioznie i duhovnie pamyatniki Sentralnoy Azii. -Turkiston: Saga, 2001. -S.159-160.

³ Abdulloh Ismatulloh, Hoji. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. -Toşkent: Şark: 2005. -S. 107-109.

⁴ Calilov, Sayyid. Buhoriylar kissasi. -Toşkent: Toşkent Islom universiteti . -S. 153-164 .

Jalilov u kishi 1895 yil Taroz (hozirgi Jambul) shahrida dunyoga kelib, 1991 yil 26 iyun kuni qazo qilganligini ma'lum qiladi.

Sayyid Mahmudxon Taroziyning ota-onasi islom ilmi e'tiqodiga ixlosi baland bo'lib, Turkistonning e'tiborli kishilaridan bo'lgan. Sayyid Mahmudxon Taroziy boshlang'ich ta'limni otasidan o'rganib, bolalik yillaridayoq Qur'onni to'lig'icha yod olgan. Yoshlik yillarida mashhur olim Shayx ibn al-Kamol Nosirxon To'ra al-Kosoniydan Qur'on haqida, Muhammad payg'ambarning hadisleri haqida, shuningdek, huquqshunoslik va adabiyot ilmidan saboq oladi. Ustozi uning fanlarni o'rganishdagi tirishqoqligi uchun, o'ziga munosib va aqlli shogird sifatida ko'rib, unga «Oltinxon» nisbasini beradi.⁵ Shundan so'ng, Sayyid Mahmudxon Taroziy islom olamida Oltinxon To'ra nomi bilan mashhur bo'ladi.

Sayyid Mahmudxon Taroziy ash-Shayx Muhammad al-Asaliy ash-Shomiy, ash-Shayx Orifxo'ja, ash-Shayx Abdulkodi, ash-Shayx as-Sayid Abulmuxsin, ash-Shayx Abdulboriy, ash-Shayx Abdulboqiy kabi olimlar yordamida ilmiy muvaffaqiyatlarga erishgani uchun ularni cheksiz hurmat qilgan. U Toshkentdagi Ko'kaldosh keyin Buxoro madrasalarida o'qiydi. Sayyid Mahmudxon Taroziy arab, fors, turk tillarini, shuningdek, diniy adabiyotni, ayniqsa, Qur'on va hadisleri mukammal o'rganib, yuksak hurmat-e'tiborga sazovor bo'ladi.

Sayyid Mahmudxon Taroziy 1917 yilda yuz bergan siyosiy besaranjomliklardan so'ng Avliyoota shahrida avval maktabdorlik, so'ng madrasada mudarrislik qiladi. Olim sifatida shuhrat topib, nomi atrofdagi Turkiston, Chimkent, Sayram, Merki tomonlarda ham mashhur bo'lib ketgan. Ammo yurtida boshlangan siyosiy parokandalik tufayli ko'p ulamolalar qatori, Sayyid Mahmudxon Taroziy ham ta'qib ostiga olinadi. Bir muddat Farg'onada, so'ng Andijonda yashirilib yuradi. Farg'ona vodiysida ham siyosat tanglashgach, Afg'onistonga o'tib ketishga majbur bo'ladi.

Shu tariqa 1930 yildagi ahli ilmlarni qatag'on qilish boshlanganda Oltinxon To'ra ham o'z vatanini tark etib, xorijga chiqib ketishga majbur bo'ladi. Afg'onistondan muborak haj safariga borgach, Hindistonning Bombay shahrida o'n yil istiqomat qilib, yetuk tasavvufshunos olim sifatida tanilib katta obro' qozonadi. Shu yillar davomida Sayyid Mahmudxon Taroziy she'riy mashqlar bilan ham shug'ullanadi. Aynan Bombayda Sayyid Mahmudxon Taroziy, XII asrdagi noma'lum olim tomonidan qilingan tarjimini hisobga olmaganda, Qur'oni Karimni ilk bor turkiyning «o'zbekcha lahjasi»ga tarjima qiladi.¹

Sayyid Mahmudxon Taroziy Hindistonning hindulari va musulmonlari o'rtasida boshlangan harbiy-siyosiy notinchliklar tufayli Saudiya Arabistoniga borib o'rtnashadi. 40 yildan ortiq davom etgan so'nggi islomiy-ilmiy va adabiy-ma'rifiy faoliyati muqaddas shaharlar - Makka va Madinada kechadi. Uning asosiy asarlari ham shu erda yaratiladi.²

Dastlab Makkada xususiy maktab ochib, vatandoshlarimiz bolalariga shuningdek, mahalliy larni ham dars bera boshlaydi. O'shanda uning keng qamrovli olim ekani Arabistonda ham ma'lum bo'lib, hukumat tomonidan Harami sharifda dars berishga taklif qilinadi. U kishining olimlik iste'dodi, klassik arab tilini chuqur bilishi, notiqliqi haqidagi xabar Saudiya Arabistoni podshohigacha yetib boradi. U zotning olimlik faoliyatini e'tiborga olib, Haramga mudarrislikka tayinlaydi va bir necha yil mana shu martabali lavozimda xizmat qiladi.

Sayyid Mahmudxon Taroziy arabchani bilmaydigan turkiy zabon xalqlarni islom va odob-axloqqa oid ilmiy manbalar bilan tanishtirish haqida ko'p o'ylaydi. Shu maqsadda musulmon olamida mashhur bo'lgan va tarbiyaviy ahamiyatga molik ba'zi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, ularni Vatanga yuborish yo'llarini qidiradi. U kishining ayrim asarlari O'zbekistonga ham yetib keladi. Buning natijasida olim bizdagi dahriylik tuzumi oqibatida xalqlarimiz hayotida paydo bo'lgan ma'naviy bo'shliqni biroz bo'lsa-da, to'lg'azishga hissa qo'shadi. Kitoblarni arabchadan tarjima qilar ekan, ularni muhim izohlar va zarur sharhlar bilan to'ldiradi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiyning 40 hadis haqidagi forscha risolasini izoh va sharhlar bilan ruboiy shaklida o'zbekchaga tarjima qilib, natijada «Arba'in» nomli mustaqil asar yaratgani kabi, Oltinxon To'ra ham tarbiyaga doir ayrim arabiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, mufassal sharhlar bilan nashr ettirib, mustaqil asarlar yaratadi. Quyidagi tarjima asarlari shular jumlasidandir:

⁵ Haşimov M. Religioznie i duhovnie pamyatniki Sentralnoy Azii. –Turkiston: Saga, 2001. –S. 160

¹ Abdulloh Ismatulloh, Hoci. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. –Toşkent: Şark: 2005. –S. 109.

² Calilov, Sayfiddin. Buhoriylar kissasi. –Toşkent: Toşkent Islom universiteti . –S. 155.

1. Qur'oni Karimning tarjimasi va tafsiri (Pokiston, Hindiston va Saudiya Arabistonida nashr qilingan)

2. Imom Abu Zakariyo an-Navaviyning «Riyoz us-solihin» («Solihlar jannati») nomli to'rt jildli asarining sharhlari, lug'ati tarjimasi. 1964 yili Pokistonda va 1982 yili Saudiya Arabistonida nashr qilingan.

3. Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobitning «al-Fiqh al-Akbar» (Shariat qoidalari to'plami) asarining sharhli tarjimasi.

4. Imom at-Tahoviyning «Aqidai Tahoviy» («Tahoviy aqidalari») asariga manzuma va sharh. Bu asar Pokiston, Hindiston va Saudiya Arabistonida nashr qilinib, keng tarqalgan.

5. Abu Iso at-Termiziyning «Shamoili Muhammadiya» asarining sharhlangan tarjimasi. Tarjimon so'z boshida yozishicha, Payg'ambarimiz (s.a.v.) sifatleri haqida rivoyat qilingan sahobalarning nomlari aniqlangan. Bundan tashqari, ushbu asar qimmatli haqida maxsus musaddas ham yozgan (muallifning ushbu asari 1991 yili Toshkentda ham nashr qilingan)

6. «Taborak» surasining tarjimasi va sharhi³.

7. «Yosin» surasining tarjimasi va sharhi (qo'lyozma).

8. «A'mma» surasi tarjimasi, Karochi, 1951.

Chunonchi, «Riyoz as-solihin» kitobi, garchi sharhlar bilan qilingan tarjima bo'lsa ham Sayyid Mahmud Taroziyning muhim asari hisoblanadi. U kishining Qur'oni Karimning izohlar bilan qilgan tarjimasi esa o'zbek tiliga qilingan birinchi tarjimadir. Sayyid Mahmudxon Taroziy Hindistonda ekanidayoq bu mashaqqatli ishni boshlab, o'n yil mehnat qilgan. Ushbu tarjima avval Hindiston, so'ngra Pokistonda, 1980 yili Saudiya Arabistonida uchinchi marta nashr qilingan⁴.

Sayyid Mahmudxon Taroziy - Oltinxon To'ra o'zidan anchagina ilmiy va adabiy meros qoldirdi. Biroq, ilmiy merosining adadi hamon to'la aniqlanmagan. Yuqoridagi tarjima asarlaridan tashqari olimning quyidagi asarlari mavjud:

1. «Nur ul-basar fi siyrati xayr ul-bashar» (Payg'ambarimiz (s.a.v.) hayot yo'llari). 1964 yili Pokistonda va 1982 yili Saudiya Arabistonida nashr qilingan.

2. «Fazoyi ul-vurud va alo sayyid ul-vujud» (Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning namoz o'qishlari haqida.

3. «Aqid ul-islom» («Islom dini aqidalari»). Muallifning vafoti arafasida bosmadan chiqqan (1991).

4. «Hizb ul-a'zam» (Ulug' va mo'tabar qoida va nizomlar). O'gitlar to'plami

5. «Devoni qasoidi Mahmudiya» (Ilm va odob haqida o'zlari yozgan qasida va nazmlar to'plami). Turli shaharlarda qilingan va'zlar va ayrim safar taassurotlari ham ushbu to'plamga kiritilgan.

6. «Kitob al-haj» - Muborak haj safari qoidalari haqida. Asar 1993 yili Toshkentda ham nashr qilingan¹.

7. «Musaddasoti Mahmudiya», (Mahmud musaddaslari) Karochi, 1953.

8. «Siyratu xotimi nabiiyin» (Payg'ambarimiz tarjimai hollari, o'zbek tilida).

9. «Innaka mahjur», (Sen vatandan judo bo'lgansan) arab tilida.

10. «Ohi mahjuron», (Muhojirlar ohi) fors tilida.

11. «Dalili muhojiron»² asari

12. Saudiya Arabistoni va boshqa mamlakatlar matbuotida turli yillarda bosilgan maqolalar va she'rlar.

Ulardan «Devoni qasoidi Mahmudiya» asarida ilm va odob, ona-Vatan haqidagi qasida va nazmlar jamlangan. Shuningdek, Karochida bosilgan «Musaddasoti Mahmudiya» kitobchasida ham Vatan va uning ozodligi haqida yozilgan jozibali musaddaslari jam qilingan.

Olimning «Nur ul-basar» (Payg'ambarimiz haqida) asari ham muhim tadqiqot bo'lib, 1964 yili Karochida, 1982 yili Madinai munavvarada nashr etildi va o'sha yillaridayoq, xufya tarzda bo'lsa ham O'rta Osiyo respublikalarida ham tarqaldi. Bulardan tashqari, olimning Rasululloh hayoti, ba'zi islomiy qoidalar haqidagi asarlari ham mavjud.

³ Haşimov M. Religioznie i duhovnie pamyatniki Sentralnoy Azii. –Turkiston: Saga, 2001. –S. 160.

⁴ www.islom.uz (January, 2018)

¹ Calilov, Sayfiddin. Buhoriylar kissasi. –Toşkent: Toşkent İslom universiteti, 2006. –S. 163.

² Abdulloh Ismatulloh, Hoji. Markaziy Osiyoda İslom madaniyati. –Toşkent: Şark: 2005. –S. 108.

Olmoniyada chiqqan «Milliy Turkiston», Misrda chiqqan arabcha «Savt at-Turkiston» va turkcha «Ozod Turkiston», shuningdek, Pokistonda chiqqan «Tarjimoni afkor» va Istanbulda chiqqan «Turkiston» jurnallarida Sayyid Mahmudxon Taroziyning Vatan madhiga bag'ishlangan maqolalari va g'azallari muttasil bosilib turgan. Ularda muallif Vatan ozodligi, istiqloli uchun barcha vatandoshlarni birdamlikka chiqaradi, ona-yurt ishqida kuyib yonadi, uning go'zalliklarini kuylaydi.

Aytish kerakki, Sayyid Mahmudxon Taroziy nafaqat ilmiy, balki shoir sifatida ijodiy faoliyat bilan ham shug'ullanib, o'zbek, arab, fors va urdu tillarida she'rlar yozgan. Shoirning o'zbek tilidagi ijod namunalari yuqorida ko'rsatib o'tilgan «Musaddasoti Mahmudiya» dan tashqari, «Soqiynoma», «Arzi hol il-muhojirin», arab tilidagi «An-Nazm al-Xoviy», «Majmuat qasoidi arabiya», «Al-Javhar al-manzum fi isnod il ulum», fors tilidagi «Ruboyiot Maxmudiya», urdu tilidagi «Ar-Radd al-xasan a'la musfidiyazaman» kabi she'rlari ijod ahliga yaxshi ma'lumdir³.

Hozirda olimning hammasi bo'lib 20 ga yaqin asari aniqlangan. E'tiborli tomoni shundaki, olimning ilmiy va tarjima ishlarining nomlari arabcha bo'lsa ham, barchasi o'zbek tilida yozilgan.

3. Sayyid Mubashshirxon Muhammadxon To'ra Taroziy

Qozog'istondagi etnik o'zbeklardan yetishib chiqqan olimlardan yana biri Sayyid Mubashshirxon Muhammadxon To'ra Taroziydir. U kishi ham Oltinxon To'raning hamyurti bo'lib, Taroz shahrida tavallud topgan. Bu zot hayotining ko'p qismi Misrda o'tgan. Sayyid Mubashshirxon Taroziy to'g'risida biz Sayfiddin Jalilovning «Buxoriylar qissasi» hamda Mubashshirxon Sulaymon Kosoniyning «O'rta Osiyo tarixi» nomli kitoblari orqali bilishimiz mumkin.

Sayyid Mubashshirxon Taroziy 1890 yili Avliyoota (sobiq Taroz) shahrida tasavvuf ilmining bilimdoni oilasida tug'ilgan. Otalari Sayyid Muhammadxon To'ra fiqh ilmida e'tirof etilgan olim bo'lish bilan birga, Naqshbandiya tariqatida ham o'z davrining e'tiborli shayxlaridan bo'lgan. Sayyid Mubashshirxon Taroziy bolaligidanoq kuchli iste'dod egasi bo'lgan. Dastlabki darslarni otasidan va Taroz shahri mullalaridan olgan. So'ngra oliy ta'limga intilib, avval Toshkentning mashhur Ko'kaldosh madrasasida o'qigan, keyin o'qishni Buxoroda davom ettirgan⁴. U yerda ko'zga ko'ringan ulamolardan tahsil olib, xususan payg'ambarimizning hadislarini, Qur'on tafsirini, shu bilan birga, arab adabiyotini chuqur o'rgangan. Buxoroda Naqshbandiya ta'limoti bilan jiddiy shug'ullanadi va bir vaqtning o'zida, Qur'oni Karimni yod oladi. Yuzlab hadislarini tafsir va tadqiq qiladi, shuningdek, ilk o'rta asrlarda o'tgan mashhur arab shoirlari ijodi haqida ilmiy ishlar bilan ham shug'ullanadi.

Sayyid Mubashshirxon Taroziy «Islah» va «Oyna» jurnallarida xalq hayotining nochorligi haqida va turkistonliklarni birlashishga chaqiruvchi dastlabki ma'qolalarni e'lon qildi. 1917 yilgi davlat to'ntarishi munosabati bilan Buxoroda o'qiyotgan ilg'or fikrli talabalar jamiyatini tuzishga kirishadi. «Islah» va «Oyna» jurnallarida o'quvchilarni o'ylantiradigan fikr - mulohazalarni o'rta tashlagan va uning dastlabki maqolalariyoq xalqni sergaklikka chaqirgan.

Nihoyat, Sayyid Mubashshirxon Taroziy Buxoro talabalari jamiyatini tuzadi. Bu davrga kelib, u islomiy ilmlarning bilimdoni bo'lib shakllangan va ilmiy doiralarda e'tirof etilayotgan yosh olim sifatida tanilgan edi.

Mubashshirxon sho'ro hokimiyati ichki siyosatining asl maqsadlari va mohiyatini avvalboshdanoq zukkolik bilan anglay boshlaydi. U 1920 yillardanoq ulamolarning maxfiy jamiyatlarida ishtirok etib, yig'ilishlarda sho'roni tanqid qiluvchi chiqishlar qiladi. Tabiiyki, maxsus ayg'oqchilar nazariga tushadi va ular kerakli joylarga tegishli axborotlar etkazadi.

Shu tariqa 1926 yili yosh olim Mubashshirxon hibsga olinadi va barcha maqolalari, nutqlari taftish qilinib, «sho'roga qarshi» deb qamaladi. Qamoqda taxminan bir yil yotib, kafolat va «jimgina yurish» sharti bilan ozod qilinadi, ammo baribir, ta'qib ostiga olinadi. U ona shahriga qaytib, birmuncha muddat ilmiy ishlar bilan shug'ullanadi. O'zbeklar istiqomat qiladigan Turkiston, Chimkent, Sayram hamda Merki kabi shaharlarda va atrof qishloqlarda uning nufuzi yildan-yilga ortib boradi.

³ Haşimov M. Religioznie i duhovnie pamyatniki Sentralnoy Azii. –Turkiston: Saga, 2001. -S. 160.

⁴ Calilov, Sayfiddin. Buxoriylar kissasi. –Toşkent: Toşkent İslom üniversiteti, 2006 . –S. 164.

Mubashshirxon hozirgi Qozog'istonning janubiy hududlarida tashkil topgan «Turkiston qurilishi» nomli maxfiy tashkilotning Avliyoota bo'limiga boshliq etib tayinlanadi. Bundan komfirqa ayg'oqchilari yordamida xabar topgan hukumat, tashkilotning faoliyatiga nuqta qo'yadi. Ammo, Mubashshirxonning xalq orasidagi obro'-e'tiboridan hayiqib, qamay olmasa-da, uni chetga chiqib ketishga majbur etadi.

Shundan so'ng, 1930 yilda Mubashshirxon Taroziy oilasini tashlab, yoshgina o'g'li Nasrulloni olib, o'z vatanini tark etadi. Ota-bola Farg'ona vodiysining sharqiy tumanlarida ko'p sarson-sargardonliklarni boshdan kechirgandan so'ng, Amudaryodan o'tib, Afg'onistonda qo'nim topadilar.

Mubashshirxon Taroziyning olimligi va tashkilotchiligi haqidagi xabar Afg'onistonda to'planib qolgan farg'onaliklar orqali afg'on hukumatiga ma'lum bo'ladi. Afg'oniston rahbari Nodirshoh hukumatining maorif idoralariga ishga taklif qilinadi va hukumat yangilangunga qadar ishlaydi. Bu orada sog'ligi yomonlashib, 1936 yil davolanish uchun Hindistonga ketadi va Lohur shahriga joylashadi. Bu erda ham hind musulmonlari orasida tez e'tiborga tushib, mashhur adib Muhammad Iqbol bilan tanishadi. Bu shaharda tashkil qilingan «Himoyati islomiya» jamiyatining ishida faol ishtirok etib, uning jurnalida bayonotlar beradi, maqolalar yozadi. Keyinchalik Hindistonda turkistonliklar ko'paygach, ularning mustaqil jamiyatini tuzadi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Mubashshirxon Taroziy 1939 yilda Afg'onistonga keladi va hukumat tomonidan maorif vazirligiga ishga taklif qilinadi.¹ Mubashshirxon Taroziyning Afg'onistondagi faoliyatini o'sha yillar Qunduz shahrida istiqomat qilgan vatandoshimiz Mubashshir Sulaymon Kosoniy o'zining «O'rta osiyo tarixi» asarida to'xtalib o'tgan.²

1943 yilning aprel oyida 70 dan ortiq vatandoshlarimiz qatori Mubashshirxon Taroziy ham ayg'oqchilar ig'vosi bilan Afg'oniston hukumati tomonidan qamoqqa olinadi. Sayfiddin Jalilovning ma'lumotiga ko'ra, 1926 yilda va 1931 yillarda tuzilgan sovet-afg'on do'stlik aloqalari haqidagi bitim shartlariga binoan, ular sovet hukumatining talabi bilan qo'lga olingan. Mubashshirxon Taroziy ikki yil turmada yotgach, nufuzi e'tiborga olinib, 1945 yilda ozod qilinadi va mamlakatdan chiqarib yuboriladi: Mubashshirxon oilasi bilan Misrga ko'chib ketadi.

Mubashshir Taroziy 1950-1960 yillari Saudiya Arabistoniga bir necha marta tashrif buyurib, bu yerdagi millatdoshlar bilan yaqin aloqa o'rnatadi. U kishi faqat ilmiy ish bilan shug'ullanadi: Misr kutubxonalarida Bosh idorasining «Dor-al qutub al-misriya» tashkilotida turkiy kitoblar bo'limiga uzoq yillar mudirlik qiladi. Misrda arabcha «Savt-at-Turkiston» («Turkiston ovozi») va o'zbekcha «Turkiston» degan jurnallar ta'xis etib, turkistonlik qalamkashlarni jurnal ishiga jalb etadi. Butun faoliyati davomida xorijda yashayotgan o'zbek millatdoshlari orasida ona tili, urf-odati-yu, milliy an'analarini saqlab qolishni targ'ib qiladi. Arab muhitida yashaganliklariga qaramay, oila a'zolariga o'zbek tilida gaplashishni o'rgatadi.

Mubashshirxon Taroziy arab, fors, o'zbek tillarida bab-baravar ijod qilgan. Afg'oniston, Misr, Turkiya va Germaniyada chiqadigan jurnallarda ko'plab maqolalari bosilgan. Afsuski, ilmiy asarlarining to'liq ro'yxati hozircha noma'lum bo'lib, olim Qur'oni karim, islom dini, uning yo'nalishlari, islom va sharob, ona tili va uning millat taqdiridagi roli haqida, islom va ayollar masalasi (ikkita kitob), odob, axloq va tarbiyaga doir, Rusiyadagi musulmonlar ahvoli va ularning ozodligiga bag'ishlangan kitoblar yozgan. Shuningdek, islom dini va siyosiy partiyalar haqidagi maqolalar turkumi mavjud. Bundan tashqari, «Taroziy» taxallusi bilan g'azallar devoni, hamda 4035 baytdan iborat masnaviyolari saqlangan.

Sayyid Mubashshirxon Taroziy 1977 yili 87 yoshida Qohirada vafot etgan. 1980 yil olim tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Qohirada xalqaro ilmiy anjuman o'tkazilgan.⁵

¹ Calilov, Sayfiddin. Buhoriylar kissasi. –To'skent: To'skent Islom universiteti, 2006. –S. 166.

² Calilov, Sayfiddin. Buhoriylar kissasi. –To'skent: To'skent Islom universiteti, 2006. –S. 182.

⁵ Calilov, Sayfiddin. Buhoriylar kissasi. –To'skent: To'skent Islom universiteti, 2006. –S. 168.

Xulosa

Turkiston o'lkasi islom ulamolarining qadimiy vatanidir. Bu hududdan yetishib chiqib, butun Islom olamiga shuhrati yoyilgan, musulmon tamadduni, hadis va fiqh haqida buyuk asarlar yozgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk olimlarning ishini XX asrda davom ettirgan Sayyid Mahmudxon Taroziy va Sayyid Mubashshirxon Taroziy o'zlarining ilmiy-islomiy va ijodiy faoliyatlari natijasida ilm ahli va islom olamida munosib o'rin egallab, islom ilmi rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar sifatida tarixga kirdilar.

Adabiyotlar

ABDULLOH ISMATULLOH, Hoci, 2005, Markaziy Osiyoda islom madaniyati. -Toşkent, Şarq.

CALİLOV, Sayfiddin, 2006, Buhoriylar kıssası. –Toşkent: Toşkent İslom universiteti.

İSLOM ENSİKLOPEDİYASI, 2017. -Toşkent: G'.G'ulom nomidagi naşriyot-matbaa ijodiy uyi. -S.134-137; 168-169.

HAŞİMOV M., 2001, Religioznie i duhovnie pamyatniki Sentralnoy Azii. –Turkiston: Saga.

GOLDEN, Peter. B., 1990, "Chapter 13 - The Karakhanids and Early Islam", in Sinor, Denis, The Cambridge History of Early Inner Asia, Cambridge University Press. -PP. 343–370.

www.islom.uz (January, 2018)